

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI TALABASINING MALAKAVIY AMALIYOTINI O‘TASH TO‘G‘RISIDA

SHARTNOMA № _____

Samarqand shahri.

“_____” _____ 2025-yil

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni hamda 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qaroriga muvofiq talabalarning Malakaviy amaliyotini o‘tkazish va ularni kelgusida ishga joylashishiga ko‘maklashish maqsadida Oliy ta’lim muassasasi (keyingi o‘rinlarda “Samarqand davlat chet tillar instituti” deb yuritiladi) nomidan institut Ustavi hamda Malakaviy amaliyot Nizomiga asoslanib ish yurituvchi institut rektori Xolikov Bahodir Alikulovich bir tomondan, _____ nomidan tashkilot Ustaviga asoslanib ish ko‘ruvchi _____ ikkinchi tomondan (keyingi o‘rinlarda “Qabul qiluvchi muassasa” deb yuritiladi) va Samarqand davlat chet tillar institutining kunduzgi (kechki) fakulteti talabasi _____ (keyingi o‘rinlarda “amaliyotchi-talaba” deb yuritiladi) uchinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMANING PREDMETI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son hamda 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida amaliyotchi-talabani Malakaviy amaliyotini o‘tashi, oliy ma’lumotga ega bo‘lgan yosh mutaxassis (bakalavr)larning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish va ularni ish bilan ta’minlashda ko‘maklashish.

2. TOMONLARNING HUQUQLARI

2.1. Samarqand davlat chet tillar instituti:

- 2.1.1. Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha ehtiyoj ko‘p bo‘lgan taqdirda “qabul qiluvchi muassasa”larni tender asosida tanlash;
- 2.1.2. Amaliyotchi-talabani Malakaviy amaliyotini o‘tashi va Samarqand davlat chet tillar institutini bitirgandan so‘ng ish bilan ta’minlanishi uchun “qabul qiluvchi muassasa”ning moddiy-texnikaviy bazasini o‘rganish va shu asosida tegishli takliflar kiritadi.

2.2. “Qabul qiluvchi muassasa”:

- 2.2.1. “Samarqand davlat chet tillar instituti” o‘quv reja va dasturlari bilan tanishish hamda ularni takomillashtirish yuzasidan o‘z takliflarini berish;
- 2.2.2. Samarqand davlat chet tillar instituti ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejasiga muvofiq amaliyotchi-talabani Malakaviy amaliyotini o‘tkazishga sharoit yaratish;
- 2.2.3. Amaliyotchi-talabani ta’lim muassasasi o‘quv fanlari dasturlari hamda darsliklari bilan tanishtirish;
- 2.2.4. Amaliyotchi-talabaga malakali mutaxassislarni biriktirish;
- 2.2.5. Amaliyotchi-talabani tarbiyaviy ishlarini o‘tkazishga tayyorlash va o‘z tajribalarini ularga o‘rgatish;
- 2.2.6. Amaliyotchi-talabani Malakaviy amaliyotga qatnashishini nazorat qilish va o‘rnatilgan tartibda baholashni amalga oshiradi.

2.3. “Amaliyotchi-talaba”:

- 2.3.1. Ta’lim yo’nalishi o’quv rejasida belgilangan Malakaviy amaliyotni “Qabul qiluvchi muassasa”da o’tashi;
- 2.3.2. Malakaviy amaliyot davrida amaliyot dasturida belgilangan vazifalarni to’liq bajarishi;
- 2.3.3. Malakaviy amaliyot tugagandan keyin mas’ul kafedra mudiri va professor-o’qituvchilariga o’rnatilgan tartibda hisobot topshirishi;
- 2.3.4. Qabul qiluvchi muassasaning ichki tartib-qoidalariga to’liq rioya qilishi;

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Samarqand davlat chet tillar instituti:

- 3.1.1. Talabani O’zbekiston Respublikasining yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlashga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar talablari asosida mutaxassis etib tayyorlash;
- 3.1.2. Talabani zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanish va mutaxassisligi bo’yicha chet el adabiyotlaridan foydalana oladigan mutaxassis etib tayyorlash;
- 3.1.3. Talabada yo’nalishi bo’yicha ta’lim standartlarini, o’quv reja va dasturlarni takomillashtirish qobiliyatini shakllantirish;
- 3.1.4. “Qabul qiluvchi muassasa”ga amaliyotchi-talaba to’g’risida tegishli ma’lumotlar berish;
- 3.1.5. Talabaning Malakaviy amaliyoti davomida unga zarur metodik yordam ko’rsatish;
- 3.1.6. Shuningdek, tomonlarning roziligiga asosan quyidagi shartlar bajarish majburiyatlarini ham oladi;
- 3.1.6.1. _____
- 3.1.6.2. _____

3.2. Qabul qiluvchi muassasa:

- 3.2.1. Samarqand davlat chet tillar instituti o’quv rejasiga muvofiq ta’lim yo’nalishi talabasining Malakaviy amaliyotini o’tkazishga sharoit yaratish, institutning ilg’or pedagog-xodimlari va institut psixologidan iborat tarkib bo’yicha o’quv, ilmiy hamda metodik yordam ko’rsatishini yo’lga qo’yish;
- 3.2.2. Amaliyotchi-talabani Malakaviy amaliyotga qatnashishini nazorat qilish va o’rnatilgan tartibda baholashni amalga oshirish;
- 3.2.3. Amaliyotchi-talabani amaliyot davrida bitiruv malakaviy ishi yuzasidan aprobatsiyasini o’tkazishga amaliy yordam berish;
- 3.2.4. Talabaga mehnat faoliyati davomida uslubiy yordam ko’rsatish;
- 3.2.5. Quyidagi ijtimoiy yordam va imtiyozlar ko’rsatish:
- 3.2.5.1. _____
- 3.2.5.2. _____

3.1. Amaliyotchi-talaba:

- 3.3.1. O’z mutaxassisligi bo’yicha malaka tavsifnomasida nazarda tutilgan, shuningdek, O’zbekiston Respublikasining yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlashga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar talablari asosida mustaqil faoliyat olib borish uchun bilim va malakaga ega bo’lishi;
- 3.3.2. Malakaviy amaliyot davrida “amaliyotchi portfoliosi”ni muntazam yuritib borish lozim;

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 4.1. Tomonlarning har biri ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda boshqa tarafga yetkazilgan zararni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda to’laydi.

4.2. Malaka amaliyoti yakunlari bo'yicha qoniqarsiz baho olgan yoki uzrli sabablarsiz amaliyotga qatnashmagan talaba akademik qarzdor sifatida institut rektori buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

5. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Taraflardan birining talabi bilan shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

5.1.1. Talabanning malakasi, bilimi ushbu mutaxassis uchun amalda o'rnatilgan davlat ta'lim standartlari talablariga javob bermasa;

5.1.2. Ta'lim muassasasi tegishli hujjatlar asosida tugatilganda;

5.1.3. Ushbu shartnoma tomonlarning barchasi imzolaganidan so'ng kuchga kiradi, hamda shartnoma to'liq bajarilgunga qadar amalda bo'ladi.

5.1.4. Shartnoma amal qilish muddati 20__ yil "___" _____ dan 20__ yil "___" _____ gacha.

TOMONLARNING MANZILLARI:

“Oliy ta’lim muassasasi”

Samarqand davlat chet tillar instituti

Manzil: Samarqand shahri,
Bo'stonsaroy ko'chasi 93-uy.

Telefon: (8366) 233-51-63

Faks: (8366) 210-00-18

Rektor: B.Xolikov



“Qabul qiluvchi muassasa”

Manzil: _____

Telefon: _____

Faks: _____

Imzo: _____

M.O'.

“Amaliyotchi-talaba”

F.I.SH. _____

Uy manzili: _____

Telefon: _____

Uy telefoni: _____

Imzo: _____